



## THE ROLE OF CREATIVE ACTIVITIES IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FINE ARTS TEACHERS

Nusharov Bobir Bolbekovich <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Teacher of Gulistan State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4768536>

### ARTICLE INFO

Received: 5<sup>th</sup> May 2021  
Accepted: 10<sup>th</sup> May 2021  
Online: 15<sup>th</sup> May 2021

### KEY WORDS

art, artistic thinking, abilities, creative activity, professional activity, professional competence, intellectual ability, heuristic activity, generation.

### ABSTRACT

The article identifies important problems of applying the theoretical and practical aspects of the technology of forming the professional competence of future teachers of fine arts. It was noted that one of the most difficult aspects of the problem of forming the professional competence of future teachers of fine arts is, first of all, the specificity of this area. A person can be an artist with extensive experience, but this is not enough for the successful practical implementation of pedagogical and professional activities. On the other hand, it was noted that without a high level of artistic, pedagogical and industry training, it is impossible to conduct high-quality educational activities in schools.

## TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA IJODIY FAOLIYATNING O'RNI

Nusharov Bobir Bolbekovich <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 5-May 2021  
Ma'qullandi: 10-May 2021  
Chop etildi: 15-May 2021

### KALIT SO'ZLAR

san'at, badiiy tafakkur, qobiliyat, ijodiy faoliyat, kasbiy faoliyat, kasbiy kompetentlik, intellektual qobiliyat, evristik faoliyat, generatsiyalash

### ANNOTATSIYA

Maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalari nazariy va amaliy jihatlarini tadbiq etishda muhim muammolar aks ettirilgan. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari masalasining murakkab tomonlaridan biri eng avvalo, ushbu sohaning o'ziga hosligida ekanligi aytib o'tilgan. Inson yuqori tajribaga ega rassom bo'lishi mumkin, ammo amaliyotda pedagogik va kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun buning o'zi yetarli emas. Boshqa tomondan esa, yuqori darajadagi badiiy-pedagogik va sohaviy tayyorgarliksiz maktabda sifatli ta'lim faoliyatini olib borish mumkin emasligi ta'kidlangan.

### Asosiy qism

O'zbekistonda yangi ma'naviy – g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z

navbatida, zamonaviy san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etib ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy



tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Barcha shaharlarimizda ulkan qurilishlar amalga oshirildi, me'morchilik jadal rivojlandi. Bu davrda devoriy, mahobatli rangtasvir, vitraj, mozaika me'morlik bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib bordi. Shu davrda barpo etilgan yirik inshootlar mahobatli rangtaviy ustalarining faol ishtirokida bunyod bo'ldi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini shakllantirishda badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanish yo'llarining ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllanishi ularni o'qitish jarayonida shaxs ijodiy faoliyatini faolligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan. Oliy maktabda zamonaviy o'qitishning eng muxim vazifasi bu talabalarning kasbi bo'yicha xabardorligini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratishdir. Ijodiy faoliyat uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rishni, qobiliyatlarni talab qiluvchi ijodiy jarayon hisoblanadi. Ijodiy faoliyat - insonning uzoq faoliyati asosi, barcha moddiy va ma'naviy boyliklar manbaidir.

Ijodiy fikrlar va farazlarni generatsiyalashga undovchi asosiy omillar extiyojlari hisoblanadi. Bu extiyojning sifati bilimlar va malakalar bilan qurollanganlik bu farazlarning mazmuni bilan belgilanadi.

Ijodiy faoliyatning mohiyatini tavsiflab, A.V.Petrovskiy va M.T.Yarashevskiy uning psixologik belgilariga e'tiborni qaratishadi. Bu talabalarda ijodiy jarayonda psixik axloqiy sifatning estetik xisllarning intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi va bilimlarni egallash hisoblanadi. Psixologiya nuqtai nazaridan ijodiy jarayonning o'zi bu ijodni rivojlantirish metodlari, shakllari va ijodni rivojlantirish vositalari hisoblanadi.

M.Maxmutov ijodiy faoliyatni bunday ta'kidlagan edi, "Ijodiy faoliyat - evristik

faoliyat bo'lib, uning mohiyati muammoni tez tushunishdan, asosiy g'oya, tushunchaning mohiyatini anglab yetishdan, xarakter usulini tusatdan topishdan iborat. Bunday faoliyat yuqori jushkinlik, sub'yektning ob'yektga katta qiziqish bilan tavsiflanadi".

Ijod mexanizmi masalalari bo'yicha ishlarni o'rganish va tahlil qilish hozirgi zamon olimlarining shaxs ijodiy faoliyatining faollashishi muammosiga chuqur qiziqishlari to'g'risida xulosa qilishga imkon berdi. Biz ijodiy jarayon maqsadga intiluvchan, mashaqqatli va shiddatli mehnatdir, degan mualliflarning fikriga qo'shilamiz. U insondan yuqori ish qobiliyatini va fikrlash faolligini talab qiladi. Ijodiy faoliyat - yaxlit va uzluksiz xarakter emas. Bu jarayonda ko'tarilishlar, to'xtab qolishlar va tushib ketishlar navbatlanib turadi. Biz, ijodiy faoliyatning eng yuqori nuqtasi intellektual va ijodiy kuchlanish bilan ifodalangan fikrning aloxida xissiy ko'tarilishi, ravshanligi va anshugagi bilan ifodalanadi, degan fikrga kushilamiz.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish maqsadida, o'quv bilishga oid faoliyat davomida talabalarning ijodini faollashtirish muammosini o'rganish uchun V.I.Ignatev, V.S.Kuzin, A.N.Leontev, A.V.Petrovskiy, N.N.Rostovtsev, V.S.Rubenshteyn, A.I.Sevostyanov, M.G.Yaroshevskiy va boshqa olimlarning ishlari metodik asos bo'ldi. Psixologlarning fikriga kura, ijodiy faoliyat natijasidagi faollik diqqatni, kuzatuvchanlikni, xissiyotni, idrokni, xotirani, tafakkurni, tasavvurni, irodani va boshqa jarayonlarni safarbar qilish. Bu ta'rifni psixologiya nuqtai nazaridan ko'rib chikamiz.

Diqqat - ongning asosiy xossasi, bilishga oid jarayonlarning ichki urg'usi. Diqqat ob'yektlari bo'lib buyumlar va xodisalar, odamlarning xarakatlari va munosabatlari, fikrlari va xisllari hisoblanishi



mumkin. Diqqat jarayoni bu – inson faolligini uning uchun **axamiyatli** bo'lgan biror narsalarga to'planganligi va yo'naltirilganligidir. O'qitish jarayonida diqqatning tavsiflari masalalarida psixolog V.S.Kuzinning nuqtai nazari bizga yaqindir. U diqqatni inson ongining aniq buyumlar va xodisalarda to'planganligi, yo'naltirilganligi yoki ular tomonida qolgan barchasidan diqqatni chetga tortganda ularni aniq akslantirishni ta'minlovchi sifatida ta'riflaydi. Diqqat atrof borliqni bilishning muvaffaqiyatning muqarrar sharti hisoblanadi, u ko'z bilan ko'rib idrok qilishning to'liqligini, chuqurligini, fikrlashning faolligining, iroda kuchini u yoki bu ob'yektni o'rganishga to'plashni ta'minlaydi.

Olimlar ixtiyoriy va beixtiyor diqqatni farq qilishadi. Ixtiyorsiz yoki atayin bo'lmagan diqqat – bu ongning buyum yoki xodisaga biror xususiyatlarga ko'ra (kuzgatgichlarning mavjudligi) yo'naltirilganligi. Kuzgatgichlarning sifatlaridan biri diqqatni jalb etuvchi kuzgatgichning kuchi hisoblanadi. Beixtiyor diqqat odamning bilimlariga, dunyoqarashiga, barkaror qiziqishlariga va kayfiyatiga, uning avvalgi tajribasi boyligiga bog'liq, deb hisoblanadi. Beixtiyor diqqatning sababi ta'sirning kuchi, kattaligi va tasodifiyligi hisoblanadi. Diqqatni asosiyligi, o'z ishidagi bosh masalaga jalb qilishi uchun rassomlar ko'pincha kuz bilan ko'rib idrok qilishga o'z asarlaridagi asosiy narsaga to'plovchi va yo'naltiruvchi turli xil usullardan foydalanishadi. Shunday qilib, kompozitsion usullar bilan asarning asosiy g'oyasini tez va ishonarli tarzda ochib beruvchi ko'rish markazi ajratiladi. Ko'rish diqqatni jalb qilishning yana bir usuli - kompozitsiyaning ifodali vositasi foydalanish hisoblanib, u elementlarni bir-biriga nisbatan vizual taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish bilan

tavsiflanadi.

V.S.Kuzmin ixtiyoriy diqqatni ongning ob'yektga yoki xodisaga tashkiliy yo'naltirish ongni iroda kuchlarini va talabning iroda kuchlarini tuplaydi. Ixtiyoriy diqqat xuddi beixtiyoriy diqqat kabi sub'yektning extiyojlari va qiziqishlari xususiyati bilan yuzaga keladi va aniqlanadi. Ixtiyoriy diqqat, olimlarning fikriga ko'ra, aniq ifodalangan, ongli xususiyatga ega va biror faoliyatga atayin bajarishda namoyon bo'ladi. Ixtiyoriy diqqatni vujudga keltiruvchi va qullab quvvatlovchi sabab diqqat ob'yektning mazkur faoliyatini anglash hisoblanadi. Borliqni bilish jarayonida, beixtiyor divdatga ob'yekt yoki xodisaga nisbatan ochiq ifodalangan jo'shkin munosabat xam ta'sir qiladi. Diqqat ortida doim shaxs, uning extiyojlari, sabablari, maqsadlari va ko'rsatmalari turadi. Sub'yektni ob'yekt munosabatining o'zgarishi diqqatning o'zgarishiga olib keladi. Uzing psixologik kelib chikishi bo'yicha “diqqat” tushunchasi “qiziqish” tushunchasiga yaqindir. O'qitish jarayonida ixtiyoriy diqqatni qo'llab-quvvatlash imkon beruvchi shartlardan biri amaliy xarakatning kiritilishi hisoblanadi.

Insonning borliq to'g'risidagi barcha bilimlarini boshlangich manba sifatida psixologlar sezish va idrok qilish jarayonlari deb hisoblashadi. Sezish predmetlarning yaqqol obrazidir. Badiiy ijodga o'rganish jarayoni uchun ayniqsa muximi ko'rish orqali sezish hisoblanadi. Predmetlarni ko'rish orqali, sezish tufayli inson uning rangini, shaklini, nisbatlarini, konstruktsiyasini va uning boshqa xususiyatlarini anglaydi.

Talabalarning - bo'lajak o'qituvchilarning o'quv-ijodiy faoliyatida ayrim predmetlarning fazoviy xossalarini anglash aloxida muximdir. Ko'rish va ushlab bilish natijasida idrok qilish jarayonida predmetlarning shakli, tuzilishi, kattaligi, xajmi va boshqa xossalarini bilib olish



hisobiga predmetlarning yaxlit obrazi shakllanadi.

Predmetlarning shaklini, kattaligini, nisbatlarini, yo'nalishini, shaklini chegaralarini idrok qilish uchun muxim omil kontur chiziqlari yo'nalishlarini aniqlash va ularning kattaligi bo'yicha nisbati hisoblanadi, degan fikr mavjud. Bu ma'lum bir predmetlarni to'g'ri gurtburchak sifatida, boshqalarini dumaloq sifatida va x.k. idrok qilishga imkon beradi. Kuzatuvchi, avvalo, uz diqqatini tekshirilayotgan ob'yektning chegaralari chiziqlarida tuplaydi, shuning uchun kontur yoki shaklni qamrab olgan chiziq predmet to'g'risidagi axborotning muxim elituvchisi hisoblanadi.

Fazoviy xossalari va ob'yektlarni idrok qilishda noto'g'ri buzilgan idrokni ifodalovchi ko'rish tasavvurlari vujudga keldi. Ko'rish va tasavvurlarni olimlar quyidagi guruxlarga ajratishadi: 1). Ko'zning tuzilish xususiyatlari bilan bog'liq tasavvurlar; 2). "Butun" va "qism"ni taqqoslashda yuzaga keladigan tasavvurlar; 3). Tik chiziqlarni qayta baxolash; 4). O'tkir burchaklarni burttirish; 5). O'zgaruvchi relief, perspektiva va boshqalar.

Idrok qilish ko'pincha psixologlar tomonidan mustaqil faoliyat sifatida tavsiflanadi. Kasb ta'limi o'qituvchilarining ijodiy faoliyatida idrok qilishning mustaqilligini kuzatishda namoyon bo'ladi. E.I. Ignatev va V.S. Kuzin talabalarning ukish - ijodiy faoliyati jarayonida idrok qilishni tadqiq etib, kuzatishning muximligini ta'kidlaydilar. Ob'yektni tasvirlash jarayoni idrok qilish maqsadining aniqligisiz bo'lishi mumkin emas, chunki kuzatish mashklari yaxshi kuzatuvchanlikning rivojlanishi bilan yakunlanadi. Ish jarayonida talabani kuzatuvchanligi - o'quv va kasbiy bilimlarni shakllantirishda katta axamiyatga ega bo'lgan faol fikrlash faoliyatidir. Ob'yektni o'rganishda o'rganilayotgan predmet

to'g'risida yanada to'liq va aniq tasavvurga ega bo'lish uchun detallarni taqqoslash, shaklning xossalari, uslubning xususiyatlarini va x.k.larni aniqlash zarur. Shunday qilib, idrok qilish va sezish jarayonini tadqiq etish masalalari bo'yicha talabalarda bilish faoliyatining bu turini maqsadga yo'naltirilgan xolda rivojlantirish mumkinligi to'g'risida xulosaga kelishimiz mumkin. Biz insonning sezgisi va idrok qilishi ko'p jihatdan intellektual aspektga, insonning bilimlari darajasi va mazmuniga, shaxsning ko'rsatmalariga, qiziqishlari, umumiy yo'naltirilganligi va avvalgi tajribasiga bog'liq, deb hisoblaymiz. Talabalarning faol faoliyatlari va ularning kasbiy xabardorligini shakllantirishning sharti o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etishning zarurligi hisoblanadi. Amaliy topshiriqlarni bajarish davomida nazarda tutiladigan materialning talabalar tomonidan anglab etilganligini nazorat qilish, butun auditoriyaning va xar bir talabani aloxida xamda tayyorgarligi darajasiga bog'liq ravishda murakkab materialning idrok qilinishini yaxshilash yullarini izlash, talabalarning o'quv bilish, faoliyati va extiyojlarini shakllantirish zarur.

Faoliyat jarayonida inson miyasining boshqa funktsiyalari orasida asosiy urin xotiraga ajratiladi. Xozirgi zamon psixologlari xotirani odamning shaxsiy tajribasini "O'zi tashkil etishning" uzluksiz jarayoni sifatida tavsiflashadi. Xotira bilish soxasida emas, balki avval ma'lum bo'lganlarni tashkillashtirish va qayta ko'rib shaxsni shakllantirish soxasiga taalluqlidir. Xotiraning markaziy vazifasi sub'yektning ichki tajribasini birlikka keltirish, yaxlit qilib birlashtirishdir. Shunday qilib, xotira shaxsiy tajribani izchil tashkil etishning psixologik mexanizmi hisoblanadi va muvaffaqiyatli faoliyatning zarur sharti sifatida ishtirok etadi. Xotiraning xususiyatlaridan biri borliqdagi



predmetlar va xodisalarning akslanishi, esga tushirilishi natijasida vujudga keladigan turli xil xolatdardir. Xotirani tadqiq etishda, biz psixolog S.L.Rubenshteynning fikriga kushilamiz. Uning yozishicha, xotira bir qator jarayonlarni o'z ichiga oladi: avvalo, bu xotirada eslab qolish, keyin tanib olish yoki qayta tiklash passiv emasligini ta'kidlab, u shaxsning qayta tiklanuvchiga munosabatini o'z ichiga oladi. Muallif eslab qolish jarayonining inson psixikasi- ning diqqat, qiziqishlar, xissiyotlar kabi jixatlariga to'g'ridan- to'g'ri bog'liq bo'lgan idrok qilishning ongli, o'ziga xos jarayon sifatida tavsiflaydi. "Xotiraning saylovchanlik xususiyati shunda ifodalanadiki; biz uchun axamiyatli, qiziqarli bo'lgan narsalarni eslab qolish, undan bo'lajak amaliy va nazariy faoliyatda foydalanish maqsadida borliqni bilishning ayni paytda erishilganlarni ongli, oldindan kuzda tutilgan tadbiri, ongli qayd etilishi bo'ladi" [82].

Xotirada saqlab qolish - borliqdagi ob'yektlar va xotiralardan olingan taassurotlarning xotirada mustaxkamlanishi va saklanishi jarayonidir. Olimlar xotirada saklashning ikki turi- ni ajratishadi - ixtiyoriy va ixtiyorsiz. Ixtiyorsiz eslab qolish, ya'ni o'z-o'zidan vujudga keladigan, aloxida zurikishni talab etmaydigan, odatda ancha rangdor, xarakatchan o'ziga xos xolda uzidan-uzi yuzaga keladi. Uning mustaxkamligi va davomiyligiga qiziqish ta'sir ko'rsatadi. Bular faoliyat maqsadi bilan bevosita bog'liq dalillar, xodisalar, vokealar, predmetlardir. Ular insonning bilimlari tasavvurlari, xayotiy tajribasini kengaytiradi. Ixtiyoriy eslab qolish ongli ravishda qo'yilgan maqsad - ma'lum bir materialni eslab qolish, degan maqsad hisoblanadi. O'quv amaliy faoliyat ixtiyoriy eslab qolishga asoslanadi. Ixtiyoriy eslab qolishning ikki turi mavjud: mexaniq va o'ylab qilingan. O'ylab qilingan esda saklash ancha sifatlidir, u mazmunni tushunishga,

mustaxkamlanayotgan materialning moxiyatiga, ma'nodagi va mantiqiy aloqalarining ochib berilishiga asoslan- gan. Bunday eslab qolishning mustaxkamligi shaxsning xususiyat- lariga, uning qiziqishlari kengligi va chuqurligi, tavsifi jixatlariga bog'liqdir. Nazariy va amaliy materialni sifatli va ongli ravishda eslab qolish uchun, shuningdek, u yoki bu faoliyatni bajarish jarayonining koidalari va ketma-ketligini eslab qolishni engil- lashtirish uchun turli xil metodik usullar, masalan, materialni ma'nosiga karab guruxlash qullaniladi. Material ishning eng asosiy va muxim boskichlari ajratilgan bloklarga ajratiladi, keyin bloklar birgalikda birlashtiriladi. Topshiriqlarning semestr-dan-semestr-ga doimiy murakkablashtirilishi va xar xilllashtirilishi oldindan ma'lum asoslar va koidalarni albatta takrorlash bilan birga kushib olib borilishi kerak. Shunday qilib, xotira mexanizmini tadqiq etish masalalari bo'yicha biz talabalarda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishning zarur sharti sifatida xotirasini shakllantirish zarurligi va mumkinligi to'g'risidagi xulosaga keldik. Biz amaliy faoliyat jarayonida, ayniqsa, agar faoliyat xissiy jixatdan to'liq va shaxsning qiziqishlari xamda extiyojlari bilan yaqin aloqada bo'lsa, u xolda esda saqlab qolish ongli bo'ladi. Talabalarining o'quv ijodiy faoliyati mobaynida xotira mexanizmini faollashtirish sharti xotirani faollashtirish usullaridan va zamonaviy vizual kommunikatsiya vositalaridan foydalanib tashkil etish hisoblanadi.

Faoliyat jarayonida odamda avval idrok qilingan ob'yektlar yoki xodisalarning obrazlari vujudga kelishi mumkin bu tasavvurlardir. Tasavvur, psixologlar tomonidan avvalgi tajribaga asoslangan, predmetning qayta tiklangan obrazi sifatida tavsiflanadi. Tasavvur xarakatchandir



(dinamik) odamning faol bilish faoliyati sharoitida uning ob'yekt yoki xodisa to'g'risidagi tasavvurlari yangilanib takomillashib turadi. Xotiramizdagi bu xodisa olimlar tomonidan inson miyasining ishlashini yuqori darajasi sifatida tavsiflanadi.

Tafakkur jarayonida taqqoslashga katta ahamiyat beriladi. Bu atrof muhitdagi predmetlar va xodisalarning uxshashligi xamda farqlarini aniqlash jarayoni, taqqoslash har qanday tushunish va tafakkurning asosidir. Predmetlar va xodisalarni biror belgi- lari bo'yicha fikran biriktirish umumlashtirish deyiladi. Har qanday umumlashtirishning asosi uchun uxshash predmetlarning turli xil belgilari olinishi mumkin. Ob'yektlar va xodisalarning faqat umumiy emas, balki ob'yektlarning va xodisalarning mohiyatini tavsiflovchi asosiy belgilarni ajratishga tayanuvchi umumlashtirish aloxida ahamiyatga ega. Umumlashtirishning ma'lum bir konuniyatlari bilish jarayoni bilan mos tushadi.

O'rganilayotgan predmet yoki xodisaning bir kator xossalardan fikran chalgish va birorta xossani ajratib olish jarayoni psixologiyada abstraksiyalash jarayoni deyiladi. Predmetning biror belgisini boshqalarini hisobga olmasdan kayd etadigan unga qarama-qarshi jarayon aniqlashtirish deyiladi. S.L.Rubinshteyn abstraksiyaga xodisa yoki predmetning bir tomonini, xossasini, momentini muximga nisbatan ajratish, ayirib olish va tortib olish xamda boshqalardan ajratish kabi tushunchalarni beradi. Shaxsning fikrlash faoliyatida individual farqlar mavjud bo'lib, ularning eng asosiylari akdning kengligi, chuqurligi, mustaqilligi, tankidiyligi, moslanuvchanligi va tezligi hisoblanadi. Bu sifatlarni fikrlashga oid masalalarni echish jarayonida, talabalarning o'quv-ijodiy faoliyatining kechishi davomida rivojlantirish mumkin. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini o'qitish

jarayoni faol fikrlash faoliyati bilan bog'liq. Talabalar fikrining faol ishlashini zamonaviy kostyumni maketlash jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy ishida kuzatish mumkin. Xatto, ijodiy fikr, ma'lum topshiriq va bitta ijodiy manba bilan chegaralanganda talabalarning eskizlar va maketlarda bajarilgan ishlari doim individualdir. Bu xar bir talabaning fikrlash jarayoni uning xdyotiy tajribasi, kuzatishlari, dunyoqarashi, didi, tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, fikrlash faoliyatini tahlil qilib, biz bilish faoliyatining eng yuqori va mukammal boskichi sifatidagi tafakkurning sub'yektning amaliy faoliyati (mazkur xolda, badiiy- ijodiy) bilan uzluksiz aloqasi to'g'risida xulosa chikardik. Inson yaratgan barcha narsa amalda tekshiriladi, amaliyot esa tafakkur natijalarini qullanishining asosiy soxasi hisoblanadi. Biz shaxsning faol fikrlash faoliyati uning xayotiy tajribasi, kuzatishlari, dunyoqarashi, didi, tayyorgarlik darajasi va boshqalar bilan belgilanadi xamda qulay vaziyat yaratilganda o'quv faoliyati jarayonida faol shakllanishi mumkin, deb hisoblaymiz. Talabalarning tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash, aniqlashtirish ko'nikmalari ta'lim jarayonining asosiy masalasi va talabalarning kasbiy kompetentligini muvaffaqiyatli shakllanishining kafolati bo'lib hisoblanadi. Insonning ijodiy faoliyatida boshqa jarayonlar katori tasavvur, xayol qilish **katta** ahamiyatga ega. **Tasavvur qilish** jarayonini tahlil qilib, biz psixologlar V.S.Kuzin, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn va boshqalarning tajribasini urgandik. Olimlarning fikricha, tasavvur qilish – yangi obraz, tasavvur yoki g'oya shaklida yaratishning psixik jarayonidir. Tasavvur qilish – xaqiqatdan ma'lum darajada chekinish, inson ijodiy faoliyatining zaruriy elementidir. Tasavvur qilish muammoli vaziyat mavjud bo'lgan joyda, yangi echimni



izlash zarur bo'lganda vujudga keladi va shaxsning ehtiyojlari bilan motivatsiyalanadi. Tasavvur qilish passiv (xayotga tatbik qilinmagan) va faol tasavvurga bo'linib, u ijodiy va yaratuvchi bo'lishi mumkin. Ijodiy tasavvur ijodiy kishining doimiy yuldotsi bo'lib, yangi obrazlarni mustaqil yaratishni nazarda tutadi, ular faoliyatning asl va qimmatli maxsulotlarida amalga oshiriladi. V.S.Kuzin: "Tasavvur qilishni faqat insonga xos jarayon va uning mehnat faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi, ammo har qanday xolatda xam tasavvur qilish manbai doim ob'yektiv xaqiqatdir", - deb ta'riflaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tasavvur qilish jarayoni bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining ijodi uchun juda muximdir. Ijodiy ob'yektni yaratish jarayoni avvalgi tajribaning boyligi va turli tumanligi bilan

belgilanadi, uni kengaytirish - o'qitish jarayonining birinchi darajali maqsadidir. Biror kiyimni yaratish jarayonida tasavvur qilish faoliyati juda ko'p omillarga bog'liq: qo'yilgan maqsad va faoliyat turiga, talabalarning qiziqishlariga va extisjlariga, bilimlar xajmiga va elementlarni bajarishning texnik ko'nikmalariga, qobiliyatlarga bog'liqdir. Tasavvur qilish yaratuvchi va ijodiy turlarga bo'linadi. Yaratuvchi tasavvur shundan iboratki, bunda inson modelni boshqa odamlardan nutk, chizmalar, kartinalar va boshqa belgilardan qayta tiklaydi, reproduksiya qiladi. Masalan, allaqachon utib ketgan davrdagi kostyumning modeli va obrazi vujudga keladi. Reproductiv tasavurning axamiyati o'qitish jarayonida boshqa kishilarning bilimlari va tajribasini kuzatish uchun juda qimmatlidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida". T.: "Adolat", 2017y.
2. O'.Q. Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma). T.: "Fan" nashriyoti, 2006 y.
3. A.N.Alimov. Matematik ta'lim turlari orasidagi uzviylikni ta'minlash. Xalq ta'limi, 2002 y. № 5. T.: 76-82 betlar.
4. N.A.Muslimov. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: dissertasiya. Avtoreferat. T.: TDPU, 2007 y. 47 b.
5. У.Н.Нуртаев. Методика изучения изобразительного искусства Узбекистана в системе подготовки будущих учителей. Автореферат. М.: 1994 г. 62 с.